



## TIJORAT BANKLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

**Yuldashev Otobek  
Jovli o‘g‘li**

*“Biznesni rivojlantirish banki” ATB Toshkent  
shahar hududiy boshqarmasi kreditlarni boshqarish  
bo‘limi yetakchi mutaxassisi.*

Tijorat banklarining faoliyatini rivojlantirish — bu barqaror bozor mexanizmini yaratish uchun ajralmas shartdir. Iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar jarayoni aynan bank tizimini isloh qilishdan boshlandi va hozirgacha bu soha sezilarli sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bank tizimi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim, ajralmas qismidir. Banklar va tovar-pul munosabatlari tarixi bir-biridan ajralmas, ular o‘zaro rivojlanib, bir yo‘lni bosib o‘tgan. Zamonaviy sharoitda tijorat banklari tadbirkorlik amaliyotining markaziy bo‘g‘ini sifatida, moliyaviy operatsiyalar va xizmatlarning katta qismini taqdim etuvchi eng qadimiy va keng tarqalgan kredit tashkilotlaridir.

Bir qator olimlar tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, K.T. Liaw banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya vositalarini o‘rganib, ularni ikki asosiy sinfga ajratgan: 1) pul bozori instrumentlari; 2) kapital bozor instrumentlari. U investitsiya faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida veksel va obligatsiyalarini jalb qilishni taklif qilgan [1].

C.W. Smith esa o‘z ilmiy ishlanmalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va portfelli investitsiyalarini tahlil qilgan, qimmatli qog‘ozlar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini jalb etish hamda investitsiya portfelini shakllantirishni tavsiya etgan [2].

O. Lavrushin tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyatini takomillashtirish maqsadida investitsiya banklarini tashkil etishda ikki asosiy yo‘lni taklif qilgan: a) to‘g‘ridan-to‘g‘ri qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish va sotish; b) uzoq muddatli kreditlash orqali investitsiya faoliyatini tashkil etish [3].

E. Nasirov esa tijorat banklarining investitsiya faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganib, ularning eng muhimlari sifatida investorlar huquq va manfaatlarining buzilishi hamda tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi rolini oshirish tamoyillarining yetarlicha shakllanmaganligini ko‘rsatgan [4].

Ta’rifning mohiyati shundaki, tijorat banklarining asosiy maqsadi daromad olishdan iborat bo‘lsa-da, bu daromadning o‘ziga xosligi katta risk bilan bog‘liq bo‘lib, u doimiy ravishda mavjud bo‘lishi muqarrar. Shunday ekan, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya faoliyati banklarga uzoq muddatli daromadni oshirish imkonini beradi, ammo risk darajasi ham doim yuqori bo‘lib qoladi.

Tijorat banklari zamonaviy iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini bo‘lib, ular nafaqat depozitlarni qabul qilish va kreditlar berish orqali faoliyat yuritadi, balki investitsion faoliyatni ham keng ko‘lamda amalga oshiradi. Investitsion faoliyat tijorat banklari uchun daromad manbai bo‘lishi bilan birga, bank tizimining barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tijorat banklarining investitsion faoliyatining nazariy va ilmiy asoslarini chuqur o‘rganish bugungi kun talabi sifatida qaraladi.

### 1-jadval

#### Tijorat banklari investitsion faoliyatining nazariy sxemasi [5]

Nomlanishi	Tavsifi
<b>Investitsion faoliyat manbalari</b>	- o‘z mablag‘lari (kapital, zaxiralar); - mijozlar depozitlari; - xorijiy investitsiyalar; - kredit resurslari.
<b>Investitsiya instrumentlari</b>	- pul bozori instrumentlari (veksel, depozit sertifikatlari, qisqa muddatli obligatsiyalar); - kapital bozori instrumentlari (aksiyalar, uzoq muddatli obligatsiyalar); - to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar; - portfelli investitsiyalar.
<b>Investitsiya faoliyati turlari</b>	- qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish; - investitsion portfeli shakllantirish; - kreditlash orqali investitsiya qo‘llab-quvvatlash; - uzoq muddatli moliyalashtirish.
<b>Risklarni boshqarish</b>	- risklarni baholash; - diversifikatsiya; - likvidlik nazorati; - kredit va bozor risklarini kamaytirish.
<b>Natijalar maqsadlar</b> va	- daromad olish; - kapitalni oshirish; - iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash; - bankning bozor pozitsiyasini mustahkamlash.
<b>Ta’sir omillar</b> etuvchi	- iqtisodiy muhit; - qonunchilik va regulyatorlar; - bozor sharoitlari; - innovatsiyalar va texnologiyalar.

Tijorat banklarining investitsion faoliyati turli manbalardan — o‘z kapitali, mijozlar depozitlari, xorijiy investitsiyalar va kredit resurslaridan foydalanishga asoslanadi. Bu faoliyatda banklar pul bozori va kapital bozori instrumentlari, jumladan veksel, obligatsiyalar va aksiyalar kabi vositalardan keng foydalanadi. Investitsion faoliyat turlari qatorida qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, investitsion portfeli shakllantirish hamda uzoq muddatli kreditlash muhim o‘rin tutadi. Banklar faoliyatida yuzaga keladigan risklarni boshqarish uchun ularni baholash, diversifikatsiya qilish va likvidlik nazoratini amalga oshirish zarur. Investitsion faoliyatning asosiy maqsadi bank daromadini oshirish, kapitalni ko‘paytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdan iborat. Shu bilan birga, banklarning investitsion faoliyatiga iqtisodiy muhit, qonunchilik, bozor sharoitlari hamda texnologik yangiliklar katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillarni hisobga olgan holda, tijorat banklari investitsiya strategiyalarini doimiy takomillashtirib borishi lozim.

Investitsion faoliyat deganda, banklarning uzoq muddatli va qisqa muddatli moliyaviy resurslarni qimmatli qog'ozlar, mol-mulk va boshqa investitsiya instrumentlariga yo'naltirish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda bozor infratuzilmasini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Shu sababli, investitsion faoliyat banklarning umumiy strategik rejalashtirish tizimida alohida o'rinn egallaydi.

Nazariy jihatdan, tijorat banklarining investitsion faoliyati bank faoliyatining ikki asosiy komponentidan — kreditlash va investitsiyalarni boshqarishdan iborat. Kreditlash bankning qarz berish faoliyati sifatida ko'rilsa, investitsiyalar bankning o'z aktivlarini, xususan, qimmatli qog'ozlar bozorida yoki boshqa investitsion loyihalarda samarali joylashtirish faoliyatidir. Bu ikki jarayon bir-birini to'ldiradi va bankning risklarni boshqarish tizimida muvozanatni saqlashga yordam beradi [6].

Tijorat banklarining investitsion faoliyati zamonaviy moliyaviy bozorlarning muhim elementi hisoblanadi va ularning umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Banklarning investitsion faoliyati nafaqat daromad olishga xizmat qilsa, balki iqtisodiyotning rivojlanishi, moliyaviy infratuzilmaning mustahkamlanishi va innovatsiyalarni joriy etishda muhim vosita hisoblanadi.

Investitsion faoliyatning samarali tashkil etilishi uchun banklar o'z resurslarini to'g'ri yo'naltirishlari, turli investitsiya instrumentlarini qo'llashlari va risklarni samarali boshqarishlari zarur. Shu bilan birga, iqtisodiy muhit, qonunchilik, bozor sharoitlari va texnologik yangiliklar banklarning investitsion strategiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois, tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish va uni yanada samarali qilish uchun ilmiy tadqiqotlar, nazariy asoslar va amaliy yondashuvlarni rivojlantirish muhimdir. Bu jarayon banklar faoliyatining barqarorligini oshiradi, iqtisodiyotga qo'shimcha investitsiyalarni jalb etadi va moliyaviy bozorlardagi raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Liaw, K. Thomas. "The business of investment banking: A comprehensive overview." (2011).
2. Smith Jr C. W. Investment banking and the capital acquisition process //Journal of financial economics. – 1986. – T. 15. – №. 1-2. – P. 3-29.
3. Lavrushin O. The Bank and the National Economy //Problems of Economic Transition. – 1992. – T. 35. – №. 4. – P. 86-106.
4. Ismailovich N. E. et al. The Role of the Investment Environment in Attracting Reserves to the Economy of Uzbekistan //Solid State Technology. – 2020. – T. 63. – №. 4. – P. 73-80.
5. Pignataro P. Financial modeling and valuation: a practical guide to investment banking and private equity. – John Wiley & Sons, 2022.
6. Nafisa S. Dampak FDI (Foreign Direct Investment) oleh AIIB (Asian Infrastructure Investment Bank) Terhadap Proyek Mandalika Di Indonesia //Skripsi Ilmu Hubungan Internasional UNSRI. – 2024. – P. 1-7.